



## XALQARO YO'NALISHLARDA YUKLARNI TASHISHNI TASHKIL ETISHNING TRANSPORT-TERMINAL TIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

**Qosimov Sunnat**

Jizzax politexnika instituti  
ORCID: 0000-0001-6946-0388

**Annotatsiya.** Ushbu maqola xalqaro yuk tashishni tashkil etish muamolarini tahlil qiladi. Ta'kidlanishicha, xalqaro yuk tashishlarda transport-terminal tizimining iqtisodiy ko'rsatkichlari samaradorligi quyidagi ko'rsatkichlarga bog'liq: harakatlanuvchi tarkibni tashkillashtirish va rejalashtirishning zamonaviy usullaridan foydalanish darajasi, shuningdek avtotransport korxonasi ko'rsatkichlarining o'sish sur'ati, transport ekspeditsion va bojxona ombor xizmatlari bozorining kamchiligi, bu borada barcha jahon mamlakatlarida terminal biznesining yirik logistik kompaniyalar va transport taqsimlov markazlariga integratsiyalashuvi jarayoni.

**Kalit so'zlar:** terminal tashishlar, yuklarni etkazib berish, transport tarmoqlari, shakllanish tamoyillari, samaradorlik, usullar, harakatlanuvchi tarkib, rivojlanish, transport, ombor, terminal, infratuzilma, mintaqqa.

## ФОРМИРОВАНИЕ ТРАНСПОРТНО-ТЕРМИНАЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ОРГАНИЗАЦИИ ГРУЗОПЕРЕВОЗОК В МЕЖДУНАРОДНЫХ НАПРАВЛЕНИЯХ И ПОВЫШЕНИЕ ЕГО ЭФФЕКТИВНОСТИ

**Касимов Суннат**

Джиззакский политехнический институт

**Аннотация.** В данной статье анализируются проблемы организации международных грузоперевозок. Отмечается, что экономические показатели транспортно-терминальной системы в международных грузоперевозках зависят от следующих показателей: уровня использования современных методов организации и планирования подвижного состава, а также темпов роста показателей автотранспортных предприятий, отсутствие рынка транспортных экспедиционных и таможенно-складских услуг, в связи с этим терминальный бизнес во всех странах мира представляет собой большой процесс интеграции в логистические компании и транспортно-распределительные центры.

**Ключевые слова:** терминальные перевозки, доставка грузов, транспортные сети, принципы формирования, эффективность, методы, подвижной состав развитие транспорт, склад, терминал, инфраструктура, регион.

## FORMATION OF TRANSPORT-TERMINAL SYSTEM OF ORGANIZING CARGO TRANSPORT IN INTERNATIONAL DIRECTIONS AND INCREASE ITS EFFICIENCY

**Kasimov Sunnat**

*Jizzakh Polytechnic Institute*

**Abstract.** *This article analyzes the problems of organizing international cargo transportation. It is noted that the economic indicators of the transport terminal system in international cargo transportation depend on the following indicators: the level of use of modern methods of organizing and planning rolling stock, as well as the growth rate of indicators of motor transport enterprises, the lack of a market for transport forwarding and customs warehouse services, in connection with this terminal business in all countries of the world is a large process of integration into logistics companies and transport and distribution centers.*

**Keywords:** *terminal transportation, cargo delivery, transport networks, principles of formation, efficiency, methods, rolling stock, development, transport, warehouse, terminal, infrastructure, region.*

### **Kirish.**

Keyingi yillarda avtomobilda yuklarni xalqaro tashish sohasida xorijiy davlatlar bilan o‘zaro hamkorlik qilish masalalarini tartibga solish bo‘yicha shartnomaviy-huquqiy bazani takomillashtirish, milliy tashuvchilarning katta hajmli yuk avtotransport vositalari parkini yangilash va modernizatsiya qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va transport xizmatlari xalqaro bozorida ularning raqobatbardoshligini oshirishga yo‘naltirilgan salmoqli chora-tadbirlar ko‘rildi.

Shu bilan birga respublikaning o‘sib borayotgan eksport salohiyati va eksport qilinadigan mahsulotlar qiymatida transport xarajatlarini maqbullashtirish zarurati katta hajmli yuk avtotransport vositalari parki quvvatini oshirish, mahalliy tashuvchilar faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar ko‘rilishini talab etadi (Qaror, 2019).

Mamlakatimizda joylashgan logistik markazlarida yuk va yo‘lovchilarni tashish hajmlari tobora oshib bormoqda. Dunyo savdosining jadal o‘shida logistika rolining kuchayishi xalqaro masshtabda amalga oshiriladigan operatsiyalarning integrallashuvi g‘oyasini amalga oshirishga mo‘ljallangan global logistikaga alohida e‘tibor berishga olib keldi. O‘zbekistonda tashqi iqtisodiy va boshqa xalqaro aloqalar, shu jumladan yuklar (yo‘lovchilar)ni xalqaro tashishlar yuqori suratlar bilan rivojlanmoqda. Global logistikada transport-logistika tizimini boshqarishni modernizatsiyalash milliy iqtisodiyotni internasionallashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. O‘zbekistonda avtomobillarda tashishlarni rivojlantirish avtomobil magistrallari va yo‘l infratuzilmasining sifat darajasini pasayishi, xalqaro tashishlarda qatnashuvchi mamlakatlar o‘rtasida transport va bojxona tartib qoidalari sohasida huquqiy me‘yorlar bo‘yicha kelishmovchiliklar hamda xalqaro avtomobil yo‘llarini rivojlantirishdagi to‘siqlarni bartaraf qilish bo‘yicha yetarli darajada bo‘lmagan muvofiqlashtirish harakatlariga yo‘l qo‘ymaydi.

2022–2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasining 93-maqsadida: “Mamlakatning xalqaro hamjamiyatda teng huquqli sub’yekt sifatidagi rolini oshirish, hamkor mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar bilan mintaqaviy va global masalalar bo‘yicha muvozanatli tarzda muloqot olib borish, ular bilan ikki va ko‘p tomonlama uchrashuvlar o‘tkazish, siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy sohalarda turli darajadagi maslahatlashuvlarni tashkil etish, yetakchi davlatlar bilan keng qamrovli hamkorlikni strategik darajaga olib chiqish hamda ular bilan kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitimlarni kelishish” belgilangan (Mirziyoyev, 2022).

Shu munosabat bilan xalqaro yo‘llarda yuk tashishni tashkil etishning transport-terminal tizimi mamlakat xo‘jaligining barcha tarmoqlarini, ishlab chiqarish va iste‘molni bir butun

tizimga birlashtiradi, mintaqalar uchun hayotiy zaruratga aylangan aloqalarni ta'minlaydi, xalqlarni birlashtirishga yordam beradi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Park (2019) Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi infratuzilma rivojlanishi va logistika ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlilini olib boradi. Tadqiqot transport, omborxonalar va boshqa logistika infratuzilmalariga investitsiyalar va ta'minot zanjiri operatsiyalari samaradorligi o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadi. Topilmalar shuni ko'rsatadiki, yaxshi rivojlangan logistika infratuzilmasi savdoni osonlashtirish, raqobatbardoshlik va iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot rivojlanayotgan mamlakatlarning logistika imkoniyatlarini oshirish uchun maqsadli infratuzilma investitsiyalari zarurligiga urg'u beradi.

Anderson (2017) Logistika va uning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri bo'yicha adabiyotlarni har tomonlama ko'rib chiqadi. Tadqiqot logistikaning global savdoni rag'batlantirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdagi ko'p qirrali rolini o'rganish uchun turli nazariy asoslar, empirik tadqiqotlar va misollarni sintez qiladi. Topilmalar savdo xarajatlarini kamaytirish, ta'minot zanjiri faoliyatini yaxshilash va umumiy iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirishda samarali logistika tizimlari muhimligini ta'kidlaydi

Qosimov (2022). Transport logistika xizmatlari bozorida terminal tizimlar orqali yuk tashishni samarali tashkil qilish muammolari dunyoning qator mamlakatlarida, ayniqsa bozor munosabatlari shakllangan mamlakatlarda tadqiq qilingan.

Nosirova (2016) "Mamlakatimizda logistik xizmatlar xilma-xilligi bu tarmoq tashkilotlarning imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirish imkonini bermoqda. Logistikaning rivojlanishi avvalombor, avtomobil va temir yo'llarning rivojlangan tizimi, ularning samarali faoliyati ishlab chiqarishdagi umumiy xarajatlarini kamaytirishning muhim sharti va omilidir"

Qosimov (2023) Terminal xizmatlaridan foydalanuvchilar nafaqat yuk jo'natuvchilar yoki qabul qiluvchilar, balki transport operatorlari, ekspeditorlar va logistika faoliyatining boshqa ishtirokchilari hamdir. Terminallarda ular tashish jarayonida o'zaro aloqada bo'lgan boshqa kompaniyalarning xizmatlaridan, shuningdek, transport vositalarini yuklash va tushirish, tovarlarni yig'ish va qisqa muddatli saqlash, transport vositalarini kichik ta'mirlash va boshqalar xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tadqiqot metodologiyasi sifatida statistik tahlil, ijtimoiy-iqtisodiy tahlil, mantiqiy statistik yondashuv, statistik kuzatish, tanlanma kuzatuv va boshqa ko'plab ilmiy o'rganish usul va uslublaridan atroflicha foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Tadqiqotning maqsadi bo'lib, transport-logistika xizmatlari bozorida terminal tizimlar orqali yuk tashishni samarali tashkil qilish tizimini rivojlantirish uslubiyotini ishlab chiqish hisoblanadi va quyidagi ilmiy masalalar o'z yechimni topgan:

- transport-yuk kompleksida terminal tizimidan samarali foydalanish yo'llari
- logistik xizmat ko'rsatish terminal-intermodal texnologiyalaridan foydalanish
- hududda terminal texnologiyasi bo'yicha yuklar tashishni tashkil etishning logistik tizimini takomillashtirish yo'llari
- transport logistik komplekslarini yaratishning rasional yo'llari hamda joriy va istiqbolli ehtiyojlarning optimal mutanosibligi (mushtarakligi) asosida olinadigan foydadan samarali foydalanish usullarini aniqlash;

-multimodal terminal komplekslari, hududiy transport-taqsimlash va axborot-analitik markazlarni yaratish asosida yuklarni harakatlanish tizimi boshqaruvini takomillashtirishning yo'nalishlarini aniqlash:

-yuk tashishlar tizimida transport logistikasining iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Xozirgi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, birinchi navbatda, ichki va tashqi bozorlarda iqtisodiyotimizning raqobatbardoshligini oshirish, eng ilg'or texnologiyalardan foydalangan holda, real sektor tarmoqlarini modernizatsiya qilish va buning uchun ilm-fan hamda ishlab chiqarish o'rtasidagi xalqaro integratsiya aloqalarini kengaytirish, terminal tizimini tashkil etish katta ahamiyat kasb etadi.

-yuk tashishni tashkil qilishda terminal tizimning shakllanish va rivojlanish tamoyillarini tasniflash;

-transport – ekspeditsion xizmat ko'rsatish tizimining tashkiliy-iqtisodiy tuzilishi hamda uning shakllanishi va rivojlanishining asosiy tamoyillari

-transport-logistik xizmatlar ko'rsatuvchi quvvatlarni rivojlantirish va optimal joylashtirish

-yuk tashishlarda avtomobil transportini boshqarishning transport logistik tizimini iqtisodiy baholash uslubiyotini ishlab chiqish.

Terminal komplekslarini ishlab chiqarish, nafaqat qayta ishlanayotgan yuklarning hajmi va assortimentini oshirishga, balki ularning funksional imkoniyatlarni asta-sekin kengaytirilib borishiga, ayniqsa ta'minot–sotish va ekspeditsiya xizmatlari ko'rsatilishining ortib borishiga qaratilgan bo'lishi kerak.

Terminal tizimi faoliyat ko'rsatish sohasining kengayib borishi, texnologik nuqtai – nazardan qaraladigan bo'lsa bu qonuniyatdir. Bu holat xuddi shunday tendensiyalar va jahon tajribasiga mos keladi. Yirik shaharlarning aglomeratsiyalari zonalaridagi terminal tizimlari ko'p turdagi maqsadlarga xizmat qilib, o'z tarkilarida yuklarni guruhlashtirib jo'natuvchi terminallar bilan bir qatorda ta'minlash – sotish va ko'tara – chakana savdo omborxonalariga ham egadirlar. Bunga misol qilib, Parijdagi GAPOHOP terminal kompleksini ko'rsatish mumkin, bu kompleks turli xususiy va davlat kompaniyalari tomonidan ijaraga olingan 30 dan ortiq turli xil maqsadlarga xizmat qiluvchi omborxonalarni konsentratsiyalashtiradi (birlashtiradi). Bunga o'xshash terminal komplekslarini konstruksiyalash va joylashtirish tamoyillari yanada kengroq bo'lgan kommertsiya logistikasi ideyalari doirasida shakllangan. U xo'jalik tizimlarining moddiy boyliklar oqimi bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalar kompleksini qamrab oladi.

Shunday qilib, logistik tizimning boshqalardan ajratib turuvchi belgisi bu sotib olishda, tashishda, omborxonaga joylashtirishda, sotishda, ba'zi holatlarda esa xom ashyo, yarim fabrikat va tayyor mahsulot ishlab chiqarishda o'zaro harakatlarni muvofiqlashtirishga e'tiborni qaratishdan iborat.

Logistik tizimning amal qilish doirasiga ham ishlab chiqarish, ham almashuv sohalari kiradi. Bunda logistik tizim faoliyatining samaradorligi mezon bo'lib transport – taqsimlov opresiyalariga qilingan umumiy xarajat miqdori sanaladi.

Agar xom ashyo, yarim fabrikat va tayyor mahsulot xizmatlarining barcha bosqichlari ko'rib chiqiladigan bo'lsa, uni quyidagi bir qator logistik shahobchalarga (podsistemalarga) ajratish mumkin bo'ladi:

-birinchidan, ta'minot sohasiga. Bu shahobchada (podsistemada) moddiy predmetlarni sotib olinish punktidan ularni qayta ishlovchi ishlab chiqarish korxonalariga harakati (tashilishi) amalga oshiriladi;

-ikkinchidan, ishlab chiqarish sohasi, bu sohada yetkazib kelinayotgan moddiy qayta ishlanishi amalga oshiriladi;

-uchinchidan, yarim fabrikatlar va tayyor mahsulotlarni sotish;

-shu bilan bir qatorda, mahsulotlarning jismoniy siljishlarini ta'minlovchi transport sohasini alohida ajratib ko'rsatish kerak bo'ladi.

Moddiy oqimlar harakatini va moddiy zahiralarni holatini boshqarish tradision yondoshuvlar doirasida bir-biridan ajratilgan holda amalga oshirilgan. Logistik yondoshuv esa mahsulotlarning tashilishi va saqlanishini, ayniqsa, sotish, ishlab chiqarish, ta'minot, saqlash va transportirovka qilish sohalari o'rtasidagi muvofiqlashtirish masalalariga alohida e'tiborni talab qiladi.

Mahsulotlarning harakatlanishida ishtirok etuvchi kontragentlar harakatidagi har bitta nomuvofiqlik, bu sohalarning har qaysisidagi harajatlarning ortishiga va ko'rsatiladigan xizmatlar va yetkazib beriladigan mahsulotlar sifatining pasayishiga olib keladi. Bu mahsulotni sotish va ishlab chiqarish sferasidagi zahira miqdorlarining ortib ketishi, texnologik "nomuvofiqlik" (yuklarni upakovka qilish) yuklash – tushurish va saqlashning o'ziga xos xususiyatlari, transportirovkaga nisbatan qo'yiladigan talablar bilan bog'liq bo'lgan "nomuvofiqliklar"), boshqaruv organlari va uslublarining mos kelmasligi va hokazolar oqibatida yuz beradi. Shuni ham unutmaslik kerakki, logistik usulublarning rivojlanishida bir qancha to'siqlar ham mavjud. Ular, eng avvalo ishlab chiqarish, transportirovka qilish va taqsimlash jarayonlari ishtirokchilarining iqtisodiy manfaatlaridagi qarama-qarshiliklar bilan bog'liq. Transport tashkilotlari harakatlanuvchi qismning yuk ko'tarish qobiliyati va bosib o'tadigan yo'lidan to'liqroq foydalanishga, ta'minot – sotish tashkilotlari – buyurtmaning bajarilishi vaqtini qisqartirishga, zahiralarni aylanishi me'yori orttirishga harakat qiladilar. Ishlab chiqarishda esa rezervlar miqdorini qisqartirish yo'li bilan bir birlik mahsulotni ishlab chiqarishga bo'ladigan solishtirma xizmatlarni kamaytirishga intiladilar. Iqtisodiy manfaatlarning qarama-qarshiligi bir tomonning yutug'i ikkinchi tomon uchun xarajatlarning ortishiga olib kelishi oqibatida yuzaga keladi.

Bunday holda umumiy xarajatlar ortishi mumkin. Ishlab chiqarish, transportirovka qilish va saqlash jarayoni qatnashchilarining tashkiliy tarqoqlik sharoitida moddiy oqimlar harakatlanishi va zahiralarni shakllanishida maksimal darajadagi kelishuvga erishishning aslo iloji yo'q. Logistik tizimlar rivojlanishining jahon tajribasi ko'rsatadiki, odatda ular o'zlarining rivojlanishida ko'rib chiqilayotgan jarayonlarning integratsiyalashuvchi darajasi bo'yicha bir-biridan farq qiluvchi bir qator bosqichlarni bosib o'tadilar. Bunda butun logistik tizimning samaradorligi u rivojlangan sari ortib boradi.

Birinchi, eng oddiy bo'lgan bosqichda, odatda tayyor mahsulot sotilishi sohasida, saqlash va transportirovka qilish jarayonlarini o'zaro bog'lashga erishiladi. Logistik tizim o'z ichiga sotish tashkilotlarida tayyor mahsulotni saqlash va ularni iste'molchilarga yetkazib berishni oladi. Birinchi bosqichda tizimga ishlab chiqarish sohasi ham jalb etiladi. Bu hamda logistika mahsulot ishlab chiqaruvchidagi zahiralarni va ishlab chiqarishning o'ziga texnologik xususiyatlarini ham qamrab oladi. Yanada rivojlanganroq logistik tizimlar o'ziga ta'minot sohasini ham qo'shib oladi. Shu narsa ravshanki, logistik tizimlarda erishiladigan texnologik muvofiqlashtirish, boshqaruv jarayonlarini muvofiqlashtirishga asoslanadi. Kommersiya logistikasi mazmunan moddiy oqimlar harakatining va xom ashyoni olishdan boshlab, to tayyor mahsulotni iste'mol qilishgacha bo'lgan bosqichlarni boshqarishni muvofiqlashtirishdan iborat. Bunday kelishuvli bog'lanishga o'zaro hamkorlik qiluvchi tomonlarning bir-birlariga ma'lum bir yon berishlari natijasida erishiladi., bunga erishish esa zarur bo'lgan tashkiliy shart-sharoitlarni yaratmay turib mumkin emas.

Logistik tizimlarning rivojlanishi tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, odatda transport ularning strukturasi hal qiluvchi o'rinda turadi. Bir tomondan bu transport tashkilotlariga o'z faoliyatlari doirasini kengaytirishga va transport xizmatlari bozorida mustahkam o'rnatishga, ikkinchi tomonda, sanoat korxonalarini ularga xos bo'lmagan faoliyatlardan ozod bo'lishlariga imkoniyat yaratiladi. Bunda korxonalarining xarajatlari kamayadi va u butun kuchlarni ularning asosiy bozorlariga qaratishga imkoniyat vujudga keladi.

O'zbekiston ilm-fani bugun bozorning o'zgarib borayotgan ehtiyojlariga tez moslasha oladigan, mamlakatimiz va butun dunyoda xaridorgir bo'lgan ilm talab, yuqori texnologik



mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan tom ma'nodagi innovasion iqtisodiyotning texnologik bazasini yaratish uchun katta imkoniyatlarga ega.

Shu munosabat, iqtisodiyotni modernizatsiyalashda avtotransportdan foydalanishning samaradorlik darajasini yanada oshirish, avtotransport xizmatida raqobat muhitini shakllantirish, kelgusida transport xizmatiga bo'lgan talabni yanada chuqurroq o'rganish, avtotransport korxonalarida innovasion faoliyatni yanada rivojlantirish sohasidagi vazifalarni hal qilish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bundan tashqari, transport sohasi shiddatli rivojlanayotgan iqtisodiyotda innovasion jarayonlarning ahamiyati tobora oshib borayotgan bir vaqtda ularni joriy etish va tartibga solish usullarini tadqiq qilish, shubhasiz, dolzarblik kasb etadi.

Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda transport logistika xizmatlari bozorini samarali boshqarish hisobiga yuklarni tashishda avtomobil transporti faoliyatini optimallashtirishni qator masalalarini tadqiq qilish va ularni yechimini topish hozirgi vaqtda ham dolzarbdir. Birinchi navbatda bu yuklarni tashishni boshqarishning transport-logistika tizimini kengaytirish, takomillashtirish va uni baholashning ilmiy uslubiy asoslarini yaratish hamda ichki va tashqi tashishlarda transport faoliyatini optimalashtirish, transport bozori faoliyatini baholash, logistik tizim sharoitlarida avtotransportda yuklarni tashishning optimal hajmini aniqlash, avtotransportda yuklarni tashish tizimida transport logistikasining iqtisodiy samaradorligini baholash uslubi va uslubiyotini ishlab chiqish masalalariga ta'lluqlidir.

### **Xulosa va takliflar.**

Hozirgi vaqtda amaliy holda xalq xo'jaligida kuchli va samaradorligi yuqori darajada bo'lgan infrastruktura rivojlanmoqda. Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash, uning baqaror iqtisodiy o'sishini ta'minash va yangi ichki mahsulotning oqilona tarkibini shakllantirish, xo'jalik sub'yektlarining faolligini oshirishda erkin iqtisodiy zonalar va logistik xizmatlar bozorida keng ko'lamda samarali foydalanish taqazo etiladi. Eng oddiy bosqichda saqlash va tashish jarayonlarining bog'lanishi, qoida tariqasida, tayyor mahsulotni sotish sohasida amalga oshiriladi. Logistika tizimi bu holatda tayyor mahsulotlarni savdo tashkilotlarida saqlash va ularni iste'molchilarga etkazib berishni qamrab oladi. Birinchi bosqichda ishlab chiqarish sohasi ham tizimga jalb qilingan. Bunda logistika mahsulot ishlab chiqaruvchining zahiralari va ishlab chiqarishning texnologik xususiyatlarini qamrab oladi. Eng rivojlangan logistika tizimlari ta'minot sektorini ham o'z ichiga oladi. Ko'rinib turibdiki, logistika tizimlarida erishilgan texnologik muvofiqlashtirish boshqaruv jarayonlarini muvofiqlashtirishga asoslanadi. Tijorat logistikasi, mohiyatiga ko'ra, xom ashyoni qabul qilishdan tayyor mahsulot iste'moligacha bo'lgan moddiy oqimlar harakatining barcha bosqichlarini va tovar-moddiy zaxiralar holatini shunday muvofiqlashtirilgan boshqarishni anglatadi. Ushbu bog'lanish o'zaro ta'sir qiluvchi tomonlarning ma'lum imtiyozlari evaziga amalga oshiriladi, bu zarur tashkiliy shartlarni yaratmasdan mumkin emas (Qosimov, 2022).

Logistika tizimlarini rivojlantirish tajribasi shuni ko'rsatadiki, transport, qoida tariqasida, ularning tarkibida asosiy o'rinni egallaydi. Bu, bir tomondan, transport tashkilotlariga o'z faoliyat doirasini kengaytirish va transport xizmatlari bozorida o'z o'rnini egallash imkonini bersa, ikkinchi tomondan, sanoat tashkilotlarini ular uchun odatiy bo'lmagan ishlardan ozod qiladi. Shu bilan birga, korxonalar xarajatlari kamayadi va ularning asosiy bozorlarida kuchlarni jamlash imkoniyatlari ochiladi.

Terminal tizimini rivojlantirishning umumiy tamoyillari va asosiy istiqbollari belgilashda yuqorida tavsiflangan logistika yondashuvidan kelib chiqqan holda uni kengaytirishni ta'minlash kerak. Bunday kengayish imkoniyati quyidagi holatlardan kelib chiqadi.

Terminal tarmog'ining rivojlanishi bilan hal qilinishi mumkin bo'lgan muammolar guruhi ham asosan tugun bilan bog'liq. Bu shaharda omborxonalarining etishmasligi, yuk egalarini yukni yetib kelish joyida saqlashga majbur qiladi. Shaharda yer resurslarining etishmasligi

shahardan tashqarida shaharga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lmagan omborlarni olib tashlashni talab qiladi. Omborlarni saqlash muammosining asosiy yechimi shaharlar atrofida yuqori sig'imli transport va ombor terminallari majmuasini yaratish bilan bog'liq. Bu shahar transport uzelinig ishini cheklaydi va iqtisodiy kompleks ishini rasionalizatsiya qiladi.

Ko'rib chiqilgan logistika konsepsiyalari asosida transport, ombor va ekspeditorlik xizmatlarini qamrab oluvchi kompleks tizimlar yaratish, ayniqsa, istiqbolli hisoblanadi. Bunday tizimlarning asosini xalqaro standartlarga javob beradigan keng ko'lamli xizmatlarga ega zamonaviy, yuqori mexanizatsiyalashgan ko'p maqsadli yuklarni saqlash va yuklarni qayta ishlash terminal majmualari tashkil etishi kerak.

#### **Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:**

Anderson, R. (2017) *Logistics and Economic Development: A Comprehensive Review*. *Journal of International Trade and Economic Studies*, Vol. 28, No. 2. Pages: 87-105

Mirziyoyev Sh. (2022). 2022–2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasining 93-maqsadida:

Nosirova J. (2016) *O'zbekistonda logistikaning xizmatining rivojlanishi va istiqbollari*. "Iqtisodiyot va innovation texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. TDIU. № 4, 2016 yil. [www.iqtisodiyot.uz](http://www.iqtisodiyot.uz) -2 B.

Park, S. (2019) *Infrastructure Development and Logistics Performance: A Comparative Analysis of Developed and Developing Countries*. *Journal of Transport Economics and Policy*, Vol. 42, No. 3. Pages: 165-183

Qaror (2019) Mirziyoyev Sh. "Avtomobil transportda yuklarni xalqaro tashishlarni yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida" 2019 yil 7 iyundagi PQ-4353-son qarori.

Qosimov S.H. (2022). *Yuklarni tashishni tashkil etish asosida hududlarda terminal texnologiyasini qo'llash logistik tizimini shakllantirish*. *экономика и социум*, (12-1 (103)), sayt: <http://www.iupr.ru> 214-217.

Qosimov S.H. (2023). *Yuklarni tashishda terminal va logistika texnologiyasining hozirgi holati va uning rivojlanishi*. *экономика и социум*, (4-1 (107)), 255-258.